

**BUYUK IPAK YO'LINING SHARQ BOZORLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI
ROLI VA O'RNI.**

Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi ilmiy xodimi

Bahromov Umidjon Bahrom o'g'li

Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi ilmiy xodimi

Abduraxmonov Jamshid

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lining sharq bozorlarida tutgan o'rni va savdo sotiqni rivojlantirishdagi roli haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek Buyuk Ipak yo'lining O'rta Osiyodagi bozorlar ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning yaxshilanishi bilan shaharlarning asosiy savdo jamoa markazlariga ta'siri haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Chorsuv, Toq, Ravoq, Rasta, Yarmarka Toqi Ordfurushon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakrurushon, Toqi Sarrafon va Toqi Tirgaron, Bazzozlik, Zargarlik, Ko'nchilik, Rabot.*

Sharq bozorlarinmg shakllanish ibtidosti aftidan juda qadim boslangan. Qadimgi "Avesto" kitobida «chavrusuk» so'zi keItiriiib, u rautaxassislamirig fikriciia to'rt tomonli bozor, ya'ni hozirgi chorraha bozori yoki criorsu ma' nolaniu. anglatgan. Bundan esa chorsiunng dastlab savdo inshooti emas, balki chorrahada joylashgain bozor bo'lganligini va keyinchalik ushbu bozorda qurilgan binoga chorsu nomi o'tganligini anglash mumkin. Chorsu so'zidagi «su» qo'shimchasi esa qadimgi sug'dlarning «suk» so'zidan kelib chiqib bozor degan ma'noni bildirgan. Mlilodgacha VI-V asrlarda Turonnihg iqtisodiy taraqqiyoti yuqori darajaga, erjshildi. Angha keng quloch yozgan sug'orish tartibotiga asoslangan dehqonchilik rivojlanadi, birinchi yirik shaharlar (Afrosiyob, Erquig'on va Uzunqag) paydo bo'ladi. Hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ahmoniylag hukmronligining o'rnatilishi bu lyerda qulchilik munosabatlarining - taraqqiyotini jadalashtiradi. Bu munosabatlar Iskandar Zulqarnayn va selevkidlar davfida yanada keng tarqaldi. (Iskandar Zulqarnayn Nuh payg'ambar avlodidan bo'lgani uchun adolat va haqiqat o'rnatgan donishmand fotih sifatida Sharq - musulmon adabiyotida ijobiy siymo sifatida ko'rsatiladi). Boshqa yozma manbalar va me'moriy yodgorliklar ham O'rta Osiyoda bozorlaming islom davrigacha shakllanganligidan daioiat beradi. Jumladan, Qadimgi Panjikent shahrida o'itkazilgan qazishmalarda VII asr oxiri va VIII asrning boshida qurilgan ikkita bozor majmuasining xarobalari topilgan. Ulardan biri aynan shahar chorrahasida joylashgan bo'lib, bir nechta kichik savdo va hunarmandchilik xonalaridan tuzilgan. Ikkinchi bozor esa shahar bosh ko'chalaridan biriga tutashib, bu yerdagi maydon atrotida joylashgan savdo do'koni va hunarmandchilik ustaxonalaridan shakllangan. Qadimgi Panjikentda ushbu bozorlardan 'tashqari shahar ko'chalari bo'ylab joylashgan rastalar ko'rinishidagi savdo do'konlari ham bo'lgan. Xom g'ishtdan qurilgan bu savdo imoratlari ko'pincha

jamoat va turarjoy binolariga tutashgan bir qavatli va bir xonali do'konlarni tashkil qilgan. Panjikeitda ikki xonalik savdo yacheykalari ham qurilib, ularning devorlari yupqa, tomlari esa tekis ishlangan. Ilk o'rta asr shaharlarida bozorlar, asosan, shahriston ichidagi chorrahalarda, ark-qal'lar darvozalari oldidagi maydonlarda va ko'chalarda joylashib, bu davrda hah alohida qurilgan mahobatli savdo inshootlari shakllanmagan. Ushbu davr savdo inshootlarining turlariga ko'chalar bo'ylab joylashgan savdo rastalari, do'konlar va hunarmandchilik ustoxonalari kirgan xolos. X-XI asrjardan boshlab esa O'rta Osiyodagi bozorlar ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning yaxshilanishi bilan shaharlarning asosiy savdo jamoa markazlariga aylana boradi. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda shahar madaniyati, hunarmandchilik va iqtisodiyot gullab-yashnaydi. Bu davrda nafaqat mahallalar, balki shaharlar ham turli xil hunarmandchilik mollarini ishlab chiqarish va savdo markazlariga aylana boradi. Bu esa shaharlarning hududiy kengayishiga, ya'ni shahriston devorlari ortida joylashgan "gabot" deb ataluvchi alohida hudud - shafar hunarmandchilik savdo qismining shakllanishiga sabab bo'ladi. Rabotda asosan hunar ahli ayniqsa, olov bilan ishlovchilar va boy savdogarlar yashashgan. Hunarmandlar, asosan, o'zlarining uy-ustaxonalarida ishlashib, shaharlardagi hunarmandchilik uyushmalariga birlashgan va guzarlar hamda rabot bozorlarida savdo qilishgan. Ana shunday bozorlardan biri XI asr Samarqand Sug'd-bozori bo'lib, u Afrosryob shaharchasidan janub tomondagi rabotda, hozirgi Registondan taxminan Siyob bozorigacha bo'lgan hududda joylashgan. Bozordagi markaziy o'rinni usti yopiq maxsus bozor inshooti Chorsu egallab, unga rabot darvozalaridan o'tuvchi ko'chalar kelib tutashgan. Ushbu chorsu bilan Afrosiyobning Kesh darvozasi orasida savdo ko'chasi joylashib, u o'sha Samarqand Sug'd bozoriga to'g'ri kelgan. Chorsudan boshlanuvchi ko'chalarda va bu yerdagi kichik maydonchalarda ixtisoslashgan savdo rastalari, hunarmandlar do'konlari va karvonsaroylar joylashgan. Savdo ko'chasi bo'ylab joylashgan rastalar qatori "ras-at-toq" deb atalgan. Bu nomdagi "toq" so'zidan anglashiladiki, ushbu rastalar qatorining usti gumbazlar bilan yopilgan. «Chorsu» gumbazlar bilan yopilgan savdo inshooti tarzida adabiyotlardan bizga XI asrdan ma'lum. Chunonchi, tarixchi at-Tartusiyning ma'lum qilishicha, O'rta Osiyoning ba'zi ilk o'rta asr shaharlarida chorsudan tashqari "tim" deb ataluvchi savdo inshootlari ham bo'lgan. Jumladan, shunday timlar Buxoro, Ispijob, Ushturkat, Chog'oniyon, Amul va boshqa shaharlarda qurilgan. "Tim" jso'zi dastlab "bozordagi rastalar ustiga qurilgan tom" ma'nosini anglatib, keyinchalik istalgan me'moriy berk, ya'ni usti va atroflari yopiq savdo binosiga, alohida qurilgan bozor inshooti, ixtisoslashgan usti berk savdo hunarmandchilik ko'chasi va usti yopiq savdo rastalariga nisbatan ham birday qo'llangan. Tarixchi al-Muqaddasiy "tim" so'zini hatto ko'tara savdo va xorijiy saydogarlarga mo'ljallangan karvonsaroylarga nisbatan ham ishlatgan. Qisqasi, ilk o'rta asrlarda savdo bilan bog'liq istalgan usti yopiq bino, ko'cha yoki inshootning "tim" deb atalishi mumkin bo'lgan. Ta'kidlash zarurki, tim binosining nafaqai usti, balki atrofiari

ham yopiq bo'lgan. Bunday savdo binolarida yozning jazirama issig'ida, qishu kuzning sovug'i, qor-yomg'irlarda ham bemalol himoyalangan holda savdo qilish mumkin bo'lgan. XI asrga kelib O'rta Osiyoda savdo va tovar pul munosablari kredit veksel (chek) ko'rinishiga o'ta boshlaydi. Bu, o'z navbatida, bozorlarda kreditlashgan yangi moliyaviy xizmat turi pul almashtiruvchilar, ya'ni sarroflar tashkilotini shakllantiradi. Buxorodagi "Toqi Sarrofon" binosi aynan shu maqsadda qurilgan maxsus bozor inshootidir. Ma'lumki, XIV asr oxiri va XV asr G'rta Osiyo fuqaro me'morchiligi tarixiga, shu jumladan, bozorlar savdo inshootlari hunarmandchilik ustaxonalarining qurilishi tarixiga yorqin harflar bilarj yoziladi. Bu davr Amir Ternur va temuriylar hukmronligiga to'g'ri kelib, unda Buyuk Ipak yo'lining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari va katta qismining egalari turonliklar hisoblangan. Samarqand esa bu davrda ushbu yo'Ining markaziy savdo va tranzit shahri bo'libgina q'olmay, balki ilm-fan, san'at, nadaniyat, me'morchilik va hunarmandchilikning ham yuksak darajada rivojlangan markaziga aylanadi. Samarqand ustalari va hinarmandlari ishlab chiqargan paxta gazlamalar, teridan tikilgan kiyimlari ipakdan tayyorlangan ustiboshlar, misdan yasalgan idish-tovoqlar, otning egar-jabduqlari, chodir va o'tovlar, ajoyib va nafis qog'ozlar butun Sharq G'arbda mashhur edi. Shaharga savdo-sotiqni j rivojlantirish uchun bozorlar, rastalar, timlar, karvoncaroylar, sarroflar, do'konlar, hunarmandchilik ustaxonalari kerak edi. Temur davrida dastlab hozirgi Registon maydonida qator ochiq savdo rastalaridan tashqari bosh kiyimlarni sotishga mo'ljallangan maxsus savdo binosi "Timi kuloh furushon" ("Bosh kiyim sotuvchilar timi") bunyod etildi. Amir Temur ushbu inshootni xotini Tumon oqa nomidan bino etadi. Bu - Samarqand bozorlari shunchalik serob ediki, turli-tuman issiq iqlim sharoitida sotish uchun savdogarlar va xaridorlarga qulay bo'lgan katta usti yopiq bozor qurishga zaruriyat tug'iladi. Shu sababli Temur butun shaharni Registondagi tim orqali o'tadigan yopiq savdo ko'chasini qurishga farmoyish beradi. 1936-1939 yillarda Samarqandda tadqiqot olib borgan olim Sh.E. Ratiyaning ma'lumotiga ko'ra, ushbu savdo ko'chasi Amir Temurning jome masjidi (hozirgi Bibixonim) va saqlanmagan Saroy mulkxonim madrasasi binolari orasidagi maydonning janubiy qismida joylashgan timdan boshlanib, to Registon maydonidagi Tumon oqa timigacha davom etgan va undan o'chiq bozog maydoniga chiqilgan. Boshqa ma'umotlarga ko'ra, unshbu savdo ko'chasi shaharning janubiy-g'arbiy darvozalaridan biri «Chorsu» gacha davom ettirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday yopiq va keng savdo ko'chasi Temur davriga qadar nafaqat Samarqandda, baiki butun Movarounnahr va Xurosonda ham yo'q edi. Shu bois bunday usti yopiq bozor ko'chasini o'sha davr Q'rta Osiyo me'morchilik va shaharsozlik san'atining chinakam yangiliklaridan biri deb qarash mumkin edi. Ana shunday usti yopiq bozor ko'chalari keyinchalik Hirot, Isfaxon, Urganch, Xiva Buxoro va O'shda ham bunyod etiladi. Ispan elchisi Klavixoning xabar berishicha Temur davrida Samarqandda nafaqat kunduz, balki kechalari ham savdo qiladigan bozorlar mavjud bo'lgan. Shaharda amaldorlar

qurdirgan qator karvonsaroylar, kulollar, zargarlar, temirchilar, shishasozlar, qog'ozbozlar uchun ustaxonalar, shinam va qulay do'konlar mavjud edi. Asosiy ko'chalar kesishgan joylarda chorrahadagi shahar bozorlaridan tashqari mahallaiar markazlarida guzar bozorlari ham ishlab turgan. Bunday bozorlar, odatda, bir necha rastalar ustaxona yoki do'konlardan iborat bo'lgan. Bozorlar nafaqat shahriston ichida, balki unga yondoshgan rabotlar hududida ham ko'p bo'lgan. Rabot bozorlari, asosan, shahristonga kiriladigan darvozalar va ko'chalar atrofida hamda rabot chorrahalarida joylashgan. Shaharlardagi bunday bozorlar tizimidan tashqari, Buyuk Irak yo'li bo'ylab shaharlararo "yarmarka" bozorlari ham tashkil etilgan. Bunday bozorlar, odatda, karvon yo'llarida, uJar to to'xtaydigai rabotlar va karvonsaroylar yonida shakllangan. Mashhur musulmon sayyohi ibn Batutaning dalolat berishicha, XIV asming birinchi yarmida Xorazmning poytaxti Urganch yirik iqtisodiy va madaniy markaz edi. Ayniqsa, u Xorazmning bozorlarini diqqat bilan kuzatadi. «Tig'izlik shu darajada edjki, oqibatda, men na orqaga, na oldinga surila olardirn», -deb yozadi u. Sayyoh Urganch bozoridagi mollarni qayd etadi. Yozda Jayxunda ko'plab kema qataovi bo'ladi. Ular Termizdan arpa va so'li olib keladi. Sayyoh mashhur Xorazm qovumlarining mazasini maroq bilan tasvirlaydi. Qovun qoqini tayyorlash usulini ham ko'rsatib o'tadi, «Buxoro va undan keyin Isfaxon qovunlarini hisobga olmaganda, jahonning na Sharqida, na G'arbida Xorazmnikidek qovunlar yo'q. Qiziq, uni tilim-tilim qilib kesib, quyoshda quritadilar, keyin xaltalarga solib Xorazmdan Hindiston va Xitoyning uzoq shaharlariga olib ketadilar».

XIV-XVII asrlar O'rta Osiyo. bozorlarida qurilgan savdo inshootlari toq, tim; chorsu, yopiq savdo ko'chalari va karvonsaroylar o'zlarining mahobatli me'moriy yechimlari bilan ilk o'rta arslar davridsgi bozorlar va savdo hunarmandchilik imoratlaridan keskin farq qilgan. Jumladan, XVI asrda Buxoro saahrining asosiy chorrahalarida Toqi Ordfurushon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakrurushon, Toqi Sarrafon va Toqi Tirgaron nomli me'moriy ko'rinishi g'oyatda mahobatli qilib ishlangan ko'p gumbazli beshta usti yopiq savdo inshootlari bunyod etiladi. Bulardan birinchisi va oxirgisi bizgacha saqlanmagan, qolganlari esa bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda. "Toq" so'zi bu yerda ham gumbaz ma'nosini anglatadi. Toqi Zargaronning tarhi kvadrat shaklida bo'lib, uning ustini yopuvchi ulkan gumbaz o'rtada 8 ta arkka o'rnatilgan. Ko'p qirrali gardishdagi 46 ta darchadan imorat ichiga yorug'lik tushib turadi. Dastlab bino ichida 30 dan ortiq zargarlik do'konlari va utstaxonalari joyla'shgan. Toqi Telpakfurashon tarhda olti qirrali bo'lib, binoning bosh markaziy gumbazi miyonsaroy ustida o'rnatilgan. Atrofdagi kichik do'konlar esa gumbazchalar bilan yopilgan. Toq ichida bosh kiyimdan tashqari, kitob sotuvchilar va muqovasoz ustalarning do'koni bo'lgan. Shu bois ushbii bino ilgarilari "Toqi Kitobfurushon" deb ham nomlangan.

Toqi Zargaronga ulangan savdo ko'chasi bo'ylab unga yaqin joyda Abdullaxon timi qurilgan bo'lib, uhing ham me'moriy echimlari yopiq, o'rta mahobatli va tektonik

hajmli ko'rinishida ishlangan. Ichida 55 ta savdo ravoqi bo'lgan ushbu tim kamyob va qimmatbaho gazmollar savdosiga mo'jallangan. Toq va tim binolarining shakllanish shaharlarda nadaniyatining oshib borishi, kamyob va qimmatbaho mollarni chang va yog'ingarchiliklardan xoli bo'lgan usti yopiq qulay va ishonchli savdo do'konlarida sotish kelib chiqqan. Bunday me'moriy berk, yopiq savdo inshootlarni qurishda mahalliy issiq va quruq iqlim sharoitlari ham e'tiborga olingan. Bozorliar nafaqat savdo, balki hunarmandchilik markazi ham bo'lgan. Toshkentaing Chorsu bozori bir xildagi mollar bilan - chi ochiq ko'rinishga ega bo'lgan bozorcha maydonlar hamda do'kon ko'rinishidagi hunarmandchilik rastalaridan iborat bo'lgan. XX asr boshlarida ushbu bozorda jami qirqqa yaqin bozorcha maydonlar va rastalal bo'lgan. G]allabozor, Arpabozor, Gilambozor, Kiygizbozor, Ko'rpabozor, Tovoqbozor, Kulolbozor, Mevabozor va Sabzavot kabi bozorcha hamda Bazzozlik, Zargarlik, Ko'nchilik, Sovungarlik, etikdo'zlik, Misgarlik kabi rastalar shular jurnlasiga kirgan. Bozorlar aholi uchun hofdiq chiqaradigan joy vazifaisini ham bajargan. Maddoh, masxaraboz, polvon, dorboz kabilar o'z san]atlarini asosan, bozorlarda namoyish qilishgan. Bozor choyxonalarida xonandalar, sozandalar, shoirlar to'planib turishgan, askiyabozlar esa hazil mutoyiba qilishgan. Ramazon oylarida bozor kechalari ham davom etgan. Bunday «bozori sha'b» deb atalgan.

Keyingi XVIII-XIX asrlar va XX asr boshlari O'rta Osiyo shaharlarida qurilgan bozor inshootlariuing turlari tizimi va arxitekturasida deyarli o'zgarishlar sezilmaydi. Bu davrda faqat karvon- saroy va tim hamda darvozaxona binolarini yaxlit savdo majmualariga aylantirishdek ijobiy tajribalami kuzatish mumkin. Shahar ichki va tashqi bozorlaridan tashqari yarmarkalar uslubida ishlovchi tumanlararo va xalqaro tashqi bozorlar tizimi ham shakllanganki, ular birgalikda sharq bozorlari tizimini tashkil qilgan. Ta'kidlash joizki o'rta asrlardagi O'rta Osiyo mamlakatlariga xos ushbu bozorlar va savdo inshootlari tizimi hozirgi kunda ham yashovchan_va o'zining sharqona milliy an'analarini yo'qotmay davom ettirib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uralov A.S. Rol i mesto VShP v formirovanii vostochnyx bazarov. Nauch. Otchet. Sam. otd. ANRUz, Sam. 1997.
2. Uralov A.S. Me'moriy shakllarni uygunlashtirish va bezash. Samarqand, 2003.
3. Mankovskaya Yu.L. Tipologicheskiye osnovy zodchestva Sredney Azii (IX - nachalo XX veka). T., 1980.
4. Nozilov D.A., Uralov A.S. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixidan lavhalar. T., 2004.
5. Rempel L.I. Dalekoye i blizkoye. Buxarskiye zapisi. T., 1982.
6. Uralov A.S. Markaziy Osiyo o'tmishdagi jamoat binolari arxitekturasi. Sam., 2006.